

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ARIPOVA SHODIYA MAXMUDOVNA

**O‘ZBEK VA NEMIS TILLARIDA “NIKOH” BILAN BOG‘LIQ LEKSIK
BIRLIKLARNING QIYOSIY TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Aripova Shodiya Maxmudovna

O‘zbek va nemis tillarida “nikoh” bilan bog‘liq leksik birliklarning qiyosiy tadqiqi
.....3

Aripova Shodiya Makhmudovna

Comparative study of lexical units related to “marriage” in Uzbek and German
languages.....25

Арипова Шодия Махмудовна

Сравнительное исследование лексических единиц, связанных с понятием
«брак», в узбекском и немецком языках.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....53

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ARIPOVA SHODIYA MAXMUDOVNA

**O‘ZBEK VA NEMIS TILLARIDA “NIKOH” BILAN BOG‘LIQ LEKSIK
BIRLIKLARNING QIYOSIY TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Fil2096 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-saytida (www.fdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kaxarova Mavluda Mukarramovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Sadikov Zohidjon Yakubjanovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yusufaliyev Elyorjon Mashrabovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning "6-iyun 2025-yil soat 8:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-57-82; faks: (99871) 281-42-44; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (560- raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-44-02.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "22-avgust" kuni tarqatildi.

(2025-yil "22-avgust" dagi 41- raqamli reyestr bayonnomasi).



G.Z.Rozikova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

M.T.Abdupattoyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

A.G.Subirdinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida turli xalqlarning milliy an'ana va qadriyatlari, moddiy hamda ma'naviy madaniyati, turmush tarziga doir lingvomadaniy axborotni o'zida tashuvchi etnografik leksikani qarindosh bo'lmagan tillar doirasida qiyosiy o'rganish, ularni kelajak avlodga yetkazib berish masalasi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Zero, etnografizmlarda tegishli xalqning ijtimoiy, madaniy hayoti aks etib, asrlar osha avlodlarga yetkaziladi. Etnografizmlarning leksik-semantik xususiyatlarini ikki xalq leksik qatlami nuqtayi nazaridan qiyosiy tadqiq etish til lug'at tarkibi taraqqiyotini ta'minlashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida tilning turli sath birliklari doirasida qiyosiy tadqiq etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ko'p bo'lishiga qaramay, marosim nomlarini qarindosh bo'lmagan tillar leksikasiga ko'ra o'rganish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar talaygina. Ana shunday masalalardan biri "nikoh" bilan bog'liq leksik birliklarning turli tizimli tillararo o'zaro chog'ishtirma tadqiqidir. Aytish mumkinki, bu kabi tadqiqotlar tillararo munosabat o'rnatish va ularni o'rganishda muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga ega.

Mustaqillik yillarida barcha sohalar kabi o'zbek tilshunosligida ham turli xalqlar milliy-madaniy va etnik qiyofasini namoyon etishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Bugungi kunda turli xalqlar madaniyatini tubdan o'rganish barobarida o'zbek qadriyatining ham o'ziga xos sharqona madaniy xususiyatlarini e'tirof etishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Mamlakatimizda til sohasida olib borilayotgan islohotlar, o'zbek tilini rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan qator qonun va qarorlar sohada ilmiy tadqiqot ishlarining yangi bosqichga ko'tarilishiga turtki bo'lmoqda. Shu bois o'zbek tilining boshqa tillar bilan qiyosiy tadqiq qilinishi tilshunoslikda hali o'rganilmagan jihatlarni ochib berishga imkon yaratadi. Zero, "Davlat tili taraqqiyotini boshqa millat vakillarining tili va madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liq holda ko'ramiz"¹. Tilshunoslikda "nikoh" marosimi bilan bog'liq leksik birliklarni ikki xalq leksik boyligiga tayanib monografik aspektda qiyosiy tadqiq etish, ularning o'ziga xos farqli va o'xshash tomonlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda nikoh marosimi bilan bog'liq leksik birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash, ularni turli tillar, xususan, o'zbek va nemis tillari doirasida qiyosiy tahlil qilish hamda ushbu birliklarning real nutqiy jarayonda qanday shakllanib, amal qilayotganini o'rganish dolzarb va ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan masalalar sirasiga kiradi. Bu esa tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini

¹Mirziyoyev Sh.M. O'zbek tili – millat ma'naviyatining mustahkam poydevori. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. – <https://president.uz>, 2019. (murojaat sanasi: 13.08.2024).

rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Nemis nikoh to‘ylari va marosimlarini U.Kania², V.Ferreira va N.Santos³, N.Rosemarie⁴, D.Stöferle⁵, J.Harst⁶ kabi nemis tilshunos olimlari o‘z ishlarida atroflicha tadqiq etganlar. Shuningdek, P.A.Falyev va A.N.Samoylovich tomonidan qrim-tatar tilidagi maqol va matallarni jamlagan to‘plam, M.V.Nalivkina va V.P.Nalivkinning Farg‘ona vodiysi ayollarining hayot tarzini tasvirlovchi asari o‘zining alohida o‘rni bilan ajralib turadi⁷.

O‘zbek xalqining etnografik xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish jarayoni V.V.Radlovning tadqiqotlari bilan chambarchas bog‘liqdir. U Zarafshon vodiysi aholisi to‘g‘risida muhim etnografik ma‘lumotlarni yig‘ib, ushbu materiallar asosida mahalliy xalqlarning hayoti va madaniyatini aks ettiruvchi etnografik risolalar yaratgan⁸. O‘zbek tilidagi to‘y marosimiga oid ifodalarni umumiy o‘rganishga qaratilgan ilk ilmiy izlanishlar A.Jo‘raboyev va Z.Husainova tomonidan amalga oshirilgan. F.Hayitova o‘z tadqiqotida nikoh to‘yi qo‘shiqclarini lingvistik jihatdan tahlil qilgan bo‘lsa, O.Ismanova kelin salom janrining poetik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ish olib borgan. M.Kaxarova esa o‘z dissertatsiyasida o‘zbek tilidagi etnografizmlarning tizimli tahlilini amalga oshirgan⁹. Shuningdek, L.Xudoyqulova, S.Davlatov, S.Soatova, Sh.Nurullayeva,

²Kania U. (n.d.). Marriage for all (Ehe für alle)?! A corpus-assisted discourse analysis of the marriage equality debate in Germany // UK Limited, trading as Taylor & Francis Group, 2019.

³Ferreira V., Santos N. (n.d.). The wedding in Heidelberg, Germany: From a historical reenactment to a cultural tourist attraction? – Portugal, University of Coimbra, 2022.

⁴Rosemarie N.H. Die Ehe in Deutschland: Eine soziologische Analyse über Wandel, Kontinuität und Zukunft. – Verlag Barbara Budrich, 2022.

⁵Stöferle D. Ehe als Nationalfiktion: Dargestelltes Recht im Roman der Moderne. – Metzler, 2020.

⁶Harst J. Universalgeschichte des Ehebruchs: Verbindlichkeit zwischen Literatur, Recht und Religion. – Wallstein, 2021.

⁷Библиографический словарь отечественных тюркологов. До октябрьский период. – М., 1974.

⁸Радлов В.В. из Сибири: Страницы дневника. – М., 1989.

⁹Джурабоев А. Названия свадебных церемоний в узбекском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1971; Хусаинова З. Ономазиологическое исследование названий свадебных обрядов в узбекском языке (на материалах Бухарской группы говоров): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1984; Хайитова Ф. Никох тўйи кўшиқларининг лингвистик талқини: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1998; Исманова О. Ўзбек тўй маросим фольклорида “Келин салом” жанри: Филол. фан. номз.

Y.Bobajanov, N.Amonturdiyev, M.Humayun Nadim kabi tadqiqotchilar ishlarida ham urf-odat, an'ana va etnografizmlar keng o'rganilgan¹⁰. So'nggi yillarda L.Masharipova¹¹, G.Mardonova¹², M.Dusnazarova¹³, R.R.Komilov¹⁴ va M.Saidova¹⁵ tomonidan olib borilgan tadqiqotlar o'zbek xalqining nikoh to'yi marosimlari, tabrik nutqlari, etik-estetik qadriyatlar hamda qarindoshlik munosabatlarining til va madaniyatdagi ifodasini chuqur yoritadi. Bu ishlarda nikoh marosimlarining genetik ildizlari, janrlar tizimi, antropotsentrik mohiyati va tarixiy-madaniy transformatsiyasi ilmiy asosda tahlil qilingan. Biroq o'zbek tilshunosligida turli xalqlarning an'ana va urf-odatlarini aks ettiruvchi leksik birliklarni turli tizimli tillar doirasida qiyosiy jihatdan tadqiq etishga yetarlicha e'tibor qaratilmadi. Bu masala faqat grammatik qonuniyatlar bilan shug'ullanuvchi soha sifatida qarab kelingan tor ma'nodagi tilshunoslik masalalari doirasidagina o'rganildi. O'zbek va nemis xalqlarining nikoh marosimi bilan bog'liq leksik birliklarini qiyosiy-lingvistik asosda tadqiq etish globallashuv sharoitida xalqlararo kommunikatsiya jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan madaniy va semantik anglashilmovchiliklarning oldini olishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot yo'nalishi nafaqat tilshunoslikning qiyosiy-tipologik tahlil sohasini boyitadi, balki xalqaro madaniy muloqotni mustahkamlash va madaniy kompetensiyani rivojlantirishda ham o'z o'rniga ega bo'ladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining "Chog'ishtirma tilshunoslikning dolzarb muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va nemis xalqlari madaniyatiga xos bo'lgan "nikoh" bilan bog'liq lisoniy vositalarning qiyosiy tahlili orqali har ikki xalqqa tegishli bo'lgan o'ziga xos xususiyatlar va ijtimoiy qarashlar mohiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

...diss. avtoref. – Toshkent, 1999; Qaxxorova M. Ўзбек этнографизмларининг систем тадқиқи: Филол. фан. номз. ...дiss. – Toshkent, 2011.

¹⁰Xudoykulova L. Suxondarë tўyi marosim kўshiklari: Филол. фан. номз. ...дiss. – Toshkent, 2011; Davlatov S. Qashqadare vohasi ўzbek tўyi marosimlari folklori: Филол. фан. номз. ...дiss. – Toshkent, 1996; Soatova S. Юқори Зарафшон воҳасининг никоҳ тўйи маросимлари: Филол. фан. номз. ...дiss. – Toshkent, 1999; Нуруллаева Ш. Туркистон қарлуқ тип шеваларида тўй маросим номлари: Филол. фан. номз. ...дiss. – Toshkent, 1998; Бобажонов Ў. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси: Филол. фан. номз. ...дiss. – Toshkent, 1997; Амонтурдиев Н. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дiss. – Гулистон, 2020; Humayun Nadim M. Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari to'y marosimlari etnografizmlarining tizimiy va leksikografik xususiyatlari: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ...diss. avtoref. – Termiz, 2022.

¹¹Masharipova L.A. Madaniyatlararo muloqotda til va uning antropotsentrik mohiyati (O'zbekiston va AQSh nikoh to'yi marosimlari va bayramlaridagi tabrik nutqiy akti misolida): Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ...diss. avtoref. – Toshkent, 2025.

¹²Mardonova G.A. O'zbek nikoh to'yi marosimi folklorining genezisi, janrlar tizimi va poetikasi: Filol. fan. d-ri. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2024.

¹³Dusnazarova M.I. O'zbek oilasida kuyov-kelin bilan bog'liq nikoh marosimlarining etnomadaniy jarayonga ta'siri (XIX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari Surxon-Sherobod vohasi misolida): Tarix fan. b. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Termiz, 2023.

¹⁴Komilov R.R. O'zbek xalqi nikoh munosabatlarining axloqiy-estetik mohiyati va transformatsiyasi: Fals. fan. d-ri. (DSc) diss. avtoref. – Samarqand, 2023.

¹⁵Saidova M. O'zbek shevalaridagi qarindoshlik terminlarining leksik-semantik xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent, 2021.

turli tarixiy davrlarda “nikoh” leksemasi va unga bog‘liq bo‘lgan lug‘aviy ifodalarning shakllanish va rivojlanish jarayonini aniqlab, ularning semantik xususiyatlariga aniqlik kiritish;

o‘zbek va nemis xalqlarining nikoh marosimlariga oid leksik birliklarining milliy-madaniy va semantik jihatdan o‘ziga xos tomonlarini tahlil qilish;

“nikoh” konsepti bilan bog‘liq leksik birliklarni vaqt mezoniga (temporalligiga) ko‘ra tasniflab, ularning tarixiy va zamonaviy qirralarini ajratib ko‘rsatish;

“nikoh” atrofida shakllangan leksik birliklarni o‘zbek va nemis tillaridagi paremiy birliklar doirasida qiyosiy tahlil qilish;

“nikoh” konsepti bilan bog‘liq leksik birliklarning o‘zbek va nemis xalqlari og‘zaki ijodi, xususan, irim-sirimlar va xalq qo‘shiqlarida qanday ifoda topganini qiyosiy tahlil asosida o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek va nemis yozuvchilarining asarlari, xalq og‘zaki ijodi namunalari, shuningdek, nemis va o‘zbek xalqlarida amal qilinadigan urf-odat, marosim, irim-sirimlar va ular bilan bog‘liq nutqiy ifodalar tanlab olingan.

Tadqiqot predmetini o‘zbek va nemis tillaridagi “nikoh” bilan bog‘liq leksik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari hamda ularning o‘ziga xos belgilari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyaning metodologik asosini jamiyatning doimiy taraqqiyotda ekanligini aks ettiruvchi falsafiy qarashlar, bilish nazariyasi haqidagi tushunchalar tashkil etadi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, zidlash, qiyoslash, sotsiolingvistik hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

o‘zbek va nemis tillarida “nikoh” tushunchasi bilan bog‘liq lisoniy birliklarning mikrosistemasi, ularning tarkibiy tuzilishi, semantik xususiyatlari hamda har ikkala til tizimidagi paradigmatic va sintagmatic munosabatlari tizimli ravishda tadqiq etilishi hamda bu jarayonda nikohga oid leksik birliklarning lingvokulturologik va etnolingvistik jihatlari ham o‘rganilib, ularning milliy-madaniy xususiyatlari hamda ijtimoiy funksiyalari ilmiy asosda dalillangan;

“nikoh” bilan bog‘liq leksik birliklar temporalligiga ko‘ra, ya’ni nikohdan oldin, nikoh kuni va nikohdan keyingi munosabatlarni ifodalovchi leksik birliklar sifatida tasniflangan hamda o‘zbek va nemis tillaridagi badiiy matnlardan keltirilgan lisoniy dalillar orqali asoslangan;

o‘zbek tilidagi “nikoh” bilan bog‘liq paremik birliklarni nemis tilida mavjud paremlar bilan qiyoslab o‘rganish natijasida ularning pragmatik maqsadiga ko‘ra, umumiy, ifoda plani hamda lingvistik jihatidan esa o‘xshash va farqli xususiyatlari ochib berilgan;

nemis va o‘zbek tillaridagi “nikoh” bilan bog‘liq lug‘aviy birliklarning xalq qo‘shiqlari hamda irim-sirimlarda ifodalanishi misollar yordamida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek va nemis tillaridagi “nikoh” bilan bog‘liq lisoniy birliklarning tadqiqi natijasida olingan xulosalar chog‘ishtirma tilshunoslik, etnolingvistika, lingvokulturologiya, nutq madaniyati hamda pragmlingvistik tadqiqot yo‘nalishlarini yangi xulosalar bilan boyitishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;

o‘zbek va nemis tillaridagi “nikoh” bilan bog‘liq lisoniy birliklarning temporallik jihatdan tasnifi orqali ushbu tillardagi o‘xshash va farqli jihatlar ochib berilgan;

turli tizimli tillarda “nikoh” bilan bog‘liq leksemalarning semantik va uslubiy funksiyalari keng qamrovda yoritilgan;

dissertatsiyada o‘rganilgan materiallar esa ensiklopedik va qomusiy lug‘atlarni tuzishda, shuningdek, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini takomillashtirish jarayonida hamda millatlar va davlatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirishda nazariy manba sifatida foydalanish imkoniyatiga ega ekani asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammo aniq belgilanganligi, olib borilgan ilmiy izlanishlarning mantiqiy izchilligi va asoslangan xulosalar uning metodologiyasi va metodikasi bilan uyg‘unligi, yangi va muhim vazifalarning hal etilganligi, muammoni tadqiq etishda ilmiy-nazariy manbalarga tayanilganligi, shuningdek, tadqiqot jarayonida olib borilgan tahlillarning nazariy asosga ega ekanligi hamda tegishli lisoniy dalillarga tayanilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya natijalari, xususan, o‘zbek va nemis tillaridagi “nikoh” bilan bog‘liq leksik birliklarning qiyosiy tadqiqi hozirgi kunda o‘zbek tilshunosligida dolzarb hisoblangan tarjimashunoslik, uslubshunoslik, nutq madaniyati, kommunikatsiya nazariyasi, ekstralingvistika singari sohalar bo‘yicha mavjud ilmiy ma’lumotlarni kengaytirishi va mukammallashtirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, undan tarjimashunoslik, nutq madaniyati, etnolingvistikaga doir muammolarni hal etishda, tarjima lug‘atlarini yaratishda, kommunikatsiya jarayoniga oid tushunchalarni takomillashtirishda hamda ikki mamlakat o‘rtasida turizm yoki boshqa munosabatlar bilan almashinuv vaziyatlari sodir bo‘lganda adaptatsiya hosil qilish va voqelik mohiyatini to‘g‘ri anglashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek va nemis tillarida “nikoh” bilan bog‘liq leksik birliklarning leksik-semantik tahlili natijalari asosida:

o‘zbek va nemis tillarida “nikoh” tushunchasi bilan bog‘liq lisoniy birliklarning mikrosistemi, ularning tarkibiy tuzilishi, semantik xususiyatlari hamda har ikkala til tizimidagi paradigmatic va sintagmatic munosabatlari tizimli ravishda tadqiq etilishi hamda bu jarayonda nikohga oid leksik birliklarning lingvokulturologik va etnolingvistik jihatlari ham o‘rganilib, ularning milliy-madaniy xususiyatlari hamda ijtimoiy funksiyalari ilmiy asosda dalillanganligi haqidagi xulosalardan 2022-2023-yillarda amalga oshirilgan “O‘zbek milliy qo‘shiq san‘atini targ‘ib etishga bag‘ishlangan veb (elektron lug‘atlar) to‘plami yaratish” mavzusidagi F3-2019081663 raqamli fundamental loyihani bajarishda, xususan, “O‘zbek folklor san‘ati terminlarining qisqacha inglizcha-o‘zbekcha-nemischa izohli lug‘ati”ni yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2024-yil 30-sentabrdagi 1/04-127-sonli ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek xalq qo‘shiqlarida ifodalangan “nikoh” bilan bog‘liq leksik birliklar haqidagi nazariy qarashlardan qo‘shiq san‘atining etnografizmlar ta’sirida ham shakllanganligi asoslangan, o‘zbek folklor san‘atiga xos “nikoh” bilan bog‘liq terminlarning mohiyati ochib berilgan;

“nikoh” bilan bog‘liq leksik birliklar temporalligiga ko‘ra, ya’ni nikohdan oldin, nikoh kuni va nikohdan keyingi minosabatlarni ifodalovchi leksik birliklar sifatida tasniflanganligi hamda o‘zbek va nemis tillaridagi badiiy matnlardan keltirilgan lisoniy dalillar orqali asoslanganligiga doir nazariy xulosalardan 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan “Musiq va san’at o‘quv muassasalari uchun “Bolalar raqslari” fanidan interaktiv o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratish” mavzusidagi F3-2019081773 raqamli fundamental loyihani bajarishda, xususan, “O‘zbek bolalar raqslari, raqs liboslari va taqinchoqlari nomlarining o‘zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha qisqacha izohli lug‘ati”ni yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2024-yil 30-sentabrdagi 1/04-129-sonli ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada berilgan xulosalar asosida izohli lug‘atning ilmiy-nazariy qimmatini ortgan;

nemis va o‘zbek tillaridagi “nikoh” bilan bog‘liq lug‘aviy birliklarning xalq qo‘shiqlari hamda irim-sirimlarda ifodalanishi misollar yordamida dalillanganligiga oid xulosa va tavsiyalardan Farg‘ona viloyati teleradiokompaniyasi tomonidan 2021-2024-yillar mobaynida tayyorlab, o‘zbek tilida efirga uzatilgan maxsus ko‘rsatuvlarda amaliy foydalanilgan (Farg‘ona viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 14-noyabrdagi 01-02/171-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning ta’sirchanligi, rang-barangligi ortgan, mazmunan mukammallashgan, ilmiy dalillarga boy bo‘lishi ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiya natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza shaklida bayon etilgan va jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, ulardan, 5 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Ishning umumiy hajmi 136 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “O‘zbek va nemis tillarida nikoh bilan bog‘liq leksik birliklarning o‘rganilishi” deb nomlangan birinchi bobi uch faslni o‘z ichiga oladi. Bobning birinchi fasli “*Nikoh bilan bog‘liq leksemalarni tilshunoslikda o‘rganishning nazariy asoslari*” deb nomlangan. Nikoh bilan bog‘liq leksik birliklar insoniyat madaniyatida muhim o‘rin tutadi. Ular turli xalqlarning madaniy, diniy va ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiradi. Tilshunoslikda bu turdagi birliklarni o‘rganish, asosan, sotsiolingvistik, etnolingvistik va lingvokulturologik

tahlillar orqali amalga oshiriladi. Faslda ushbu sohadagi ba'zi jahon tilshunoslarining tadqiqotlari va ularning nazariy yondashuvlari bayon etilgan.

“*Nikoh*” arabcha “ح الكن” (nikāḥ) soʻzidan olingan boʻlib, bu soʻzning asl maʼnosi “uylanish, erga tegish”ni anglatadi¹⁶. Arab tilida “*nikāḥ*” soʻzi, asosan, huquqiy maʼnoda qoʻllangan boʻlib, nikoh marosimi orqali oila qurish amallarini ifodalaydi. Bu soʻz islom dinining tarqalishi bilan oʻzbek tiliga kirib kelgan va turli davrlarda turlicha koʻrinishda amalga oshib kelgan.

Nemis tilida “*nikoh*” tushunchasi, asosan, “*Ehe*” soʻzi bilan ifodalanadi. “*Ehe*” soʻzining kelib chiqishi qadimgi yuqori nemis tilidagi “*ēha*” soʻziga borib taqaladi, u qadimgi german tilidagi “*aiwō*” soʻzidan olingan. Bu soʻzning maʼnosi “*abadiylik*” yoki “*davomiylik*”ni anglatadi, bu esa nikohning doimiy va uzviy bogʻlanish sifatidagi tasavvurni aks ettiradi¹⁷.

Qadimiy madaniyatlarda nikoh tushunchasi, koʻpincha, diniy marosimlar va huquqiy majburiyatlar bilan bogʻliq holda tasvirlangan. Misol uchun, qadimgi Rimda “*matrimonium*” soʻzi nikoh tushunchasini ifodalagan boʻlib, “*mater*” (ona) va “*monium*” (vazifa) soʻzlaridan yasalgan. Bu nikohning, asosan, avlodni davom ettirish vazifasiga urgʻu berilganini koʻrsatadi¹⁸.

Oʻrta asrlarda Yevropa madaniyatida nikohga katta ahamiyat berilgan, bu davrda cherkov nikohni muqaddas bir amaliyot sifatida qabul qilgan. Nikoh terminologiyasida diniy atamalar, shuningdek, huquqiy tushunchalar rivojlangan. Masalan, “*consortium*” (birgalikda yashash) yoki “*coniugium*” (qonuniy bogʻlanish) kabi soʻzlar nikohning diniy va huquqiy tomonlarini ifodalab kelgan¹⁹.

Yangi davrda nikoh tushunchasi ijtimoiy va huquqiy jihatdan kengayib, yangi leksik birliklar bilan boyigan. Industrializatsiya va modernizatsiya jarayonlari bilan bogʻliq holda turli madaniyatlarda nikoh tushunchasi oʻzgarishga yuz tutgan. Masalan, ingliz tilidagi “*marriage*” soʻzi nafaqat oilaviy ittifoqni, balki ijtimoiy va iqtisodiy kelishuvni ham ifodalay boshlagan.

Nikoh terminologiyasining rivojlanishi, koʻpincha, ijtimoiy va huquqiy oʻzgarishlar bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan. Misol uchun, islom dunyosida “*nikoh*” tushunchasi diniy va huquqiy ahamiyatga ega boʻlsa, Yevropada “*marriage*” huquqiy majburiyatlar va davlat tomonidan tasdiqlangan amaliyot sifatida rivojlangan.

Nikoh bilan bogʻliq leksik birliklar, koʻpincha, ramziy maʼnolarni ifodalaydi. Masalan, “*halqa*” ramzi nikohda doimiylik va sadoqatni ifodalaydi. Bu ramz turli madaniyatlarda nikohning uzviyligini va bu bogʻlanishning ajralmasligini anglatadi. Xuddi shunday “*oq libos*” kelinning pokizaligini va boshlanayotgan yangi hayotni ramziy jihatdan ifodalaydi.

Tadqiq etilayotgan har ikkala til va qadriyatda nikohning muhim ijtimoiy va madaniy ahamiyati mavjud. Nikoh oila qurishning asosiy bosqichi sifatida koʻriladi va jamiyatda ijobiy baholanadi.

¹⁶Ozbek tilining izohli lugati 6 jildli, III jild. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B.373.

¹⁷Kluge F. Etymologisches Wörterbuch der deutschen Sprache. Bearb. vom E. Seebold, 24. Auflage. – Berlin, New York: Walter de Gruyter, 2002. – S.390.

¹⁸Treggiari S. Roman marriage: Iusti coniuges from the time of Cicero to the time of Ulpian. – Oxford: Oxford University Press, 1991. – P.590.

¹⁹Brooke C.N.L. The medieval idea of marriage. – Oxford: Oxford University Press, 1989. – P.384.

Nikoh tushunchasi har ikki tillarda ham doimiylik, sadoqat hamda oila qurish kabi asosiy qadriyatlarni ifodalaydi. “Ehe” va “nikoh” soʻzlari har ikkala tilda ham abadiylik va sodiqlikni anglatadi.

Oʻzbek va nemis xalqlarida nikohning diniy hamda huquqiy jihatlari katta ahamiyatga ega boʻlib, bu mazkur tillar lugʻat boyligida oʻziga xos tarzda ifodalanadi.

Oʻzbek tilida nikoh tushunchasi, asosan, diniy kontekstda qoʻllanadi, bu esa “nikoh” soʻzining diniy manbalar orqali kelib chiqqanligidan dalolat beradi. Nemis tilida esa nikohning huquqiy va zamonaviy jihatlariga katta eʼtibor qaratiladi.

Nemis tilida nikoh tushunchasi koʻproq individual erkinlik va shaxsiy tanlov bilan bogʻliq boʻlsa, oʻzbek madaniyatida u anʼanaviy urf-odatlar va ijtimoiy majburiyatlar bilan chambarchas bogʻliqligini kuzatishimiz mumkin.

Bobning ikkinchi fasli “*Tarixiy davrlarda nikoh leksemasi va u bilan bogʻliq lugʻaviy ifodalarning etimologiyasi*” deb nomlanadi. Unda nikoh, *toʻy, kelin, kuyov* leksemalari marosimlar bilan bogʻliq tushunchalar boʻlib, turli xalqlarda turlicha shakllanganligi tahlil qilinadi. Ayniqsa, ushbu masalani gʻarb madaniyati va oʻzga din kesimida tahlilga tortib, oʻzaro katta farq mavjudligini kuzatish mumkin. Umumiy maʼnoda ikki kishining birgalikda umr kechirishga boʻlgan xohish ifodasi maʼnosidagi bu harakatga doir turli shartlar va urf-odatlar shakllangan.

Mazkur odatlarning shakllanishi xalqlar tarixi, olamni anglash usuli hamda madaniyati bilan aloqadordir.

Gʻarb xalqlarida sharq madaniyatidan farqli oʻlaroq kelin va kuyov munosabatlarida oshkoralik, ochiq kelishuv va shartlashuvni koʻrish mumkin. Bu mavzuda munosabatlarni oʻrganish matnlar idroki va tarjima ishlarida toʻgʻri yondashuvni shakllantirishga yordam beradi.

Tadqiqotlarga koʻra, *kelin* va *kuyov* lugʻaviy birliklarining paydo boʻlishi ilk oʻrta asrlarga borib taqalsa, *nikoh* va *toʻy* leksemalari birinchi marta yuqori oʻrta asrlarda qoʻllana boshlagan. Ushbu faslda *nikoh* lugʻaviy birligining maʼno va mazmunini turli mamlakatlar tarixiy davrlari boʻyicha tahlil qilingan.

Dastlab Gretsiya va Rimda nikoh tushunchasiga fuqarolik ishi sifatida qarab kelingan. Oʻsha davrda nikohlar roʻyxatga olinadigan qaydnoma ham mavjud boʻlmagan. Nikohlar oilalar va ularning oila boshliqlari (pater familias) oʻrtasida kelishilgan. Ular kelin va kuyovlarning uylariga tashrif buyurishgan, ozroq miqdorda sovgʻa taqdim etishgan va shundan soʻng birgalikda yashay boshlaganlar. Kuyovga kelinning tirikchiligini taʼminlash va unga yaxshi munosabatda boʻlish majburiyati yuklatilgan²⁰.

Rimning Attika hududida huquqiy jihatdan *nikoh* leksemasining quyidagi shakli mavjud boʻlgan, unga koʻra amaldagi oddiy nikoh agar qachondir er vafot etsa, oilaviy merosni saqlab qolish uchun ayol marhumning qarindoshiga turmushga chiqishi kerak boʻlgan. Shu tariqa beva boʻlib qolgan ayolning kelgusidagi odatiy nikohini kuzatish mumkin²¹.

Oʻrta asrlarda nemis tilida soʻzlashuvchi mamlakatlar odatiga koʻra, toʻy kechasida kelin kuyovdan mahr olishi, bu bilan u qonuniy xotin boʻlishi mumkin

²⁰Gunt E., Koner W. Das Leben der Griechen und Romer nach antiken Bildwerken dargestellt. – Berlin, 2007. – S.205.

²¹Gunt E., Koner W. Das Leben der Griechen und Romer nach antiken Bildwerken dargestellt. – Berlin, 2007. – S.217.

bo‘lgan²². Bilamizki, to‘y kechasida kelin kuyovdan mahr olish odati barcha musulmon davlatlarida bugungi kunga qadar ham kuzatiladi.

Nemis xalqida o‘rta asrlardan boshlab, nikohni cherkov tomonidan tartibga solish dastlab Kengash tomonidan qabul qilingan qonunlar orqali amalga oshirilib kelinganligini tadqiqotimiz davomida kuzatdik²³.

Nasroniylikda *nikoh* leksemasi shartnomaviy xususiyatga ega bo‘lib, Rim huquqidan kirib kelgan cherkov otalari tomonidan antik davrda nasroniylikka moslashtirilgan tushuncha sifatida qo‘llab kelingan.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, 1044-yildan beri to‘y (Hochzeit) lug‘aviv birligi, rojdestvo, pasxa, hosil bayrami va barcha muqaddas insonlar tug‘ilgan kunlari singari bayram qilinadigan odatga aylanganligini, 1472-yilda nemis tilshunos olimi Albrext fon Eyb o‘zining “Ehebüchlein” (Nikoh kitobchasi) nomli (1911-yilda qayta nashr etilgan) asarida atroflicha dalillab bergan²⁴.

Fuqarolik nikohini faqatgina diniy tomondan emas, balki davlat tomonidan qonuniy joriy qilgan birinchi davlat yangi Zelandiya ekanligi bir necha tarixiy manbalarda e‘tirof etilgan. Shundan so‘ng, 1792-yilda Fransiya Respublikasi, 1874-yilda Prussiya va Shvetsiya, 1875-yilda butun nemis viloyatlari fuqarolik nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazishga majbur bo‘lganlar va bu mamlakatlarda nikoh lug‘aviy birligi muhim ma‘no kasb eta boshlagan. Ushbu davlatlarda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo‘limlari tashkil etilgan bo‘lib, ularda fuqarolik nikohini ro‘yxatga olish nafaqat majburiy bo‘lgan, balki nikohni ro‘yxatga olish marosimini ham o‘zlari amalga oshira boshlaganlar²⁵.

Islom dini amal qiluvchi mamlakatlarda nikoh lug‘aviy birligi muqaddas ma‘noga egaligi bilan xarakterlanadi. Turmush qurmaslik islom dinida qoralanganligini, har kimning o‘z jufti bo‘lishi lozimligi, yolg‘izlik faqat Allohga xosligi muqaddas kitoblarda targ‘ib qilib kelinganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, *nikoh* leksemasi asosida er va xotinning do‘st bo‘lishi, o‘zaro sevgisi, farzandning ota va onasi bo‘lishi lozimligi va Allohning amrlariga birgalikda amal qilishi tushuniladi.

Bobning uchinchi fasli “*O‘zbek va nemis xalqlari nikoh marosimlarini ifodalovchi leksik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari*” deb nomlanib, unda ikki xalqda nikoh bilan bog‘liq munosabatlarning o‘xshash va farqli jihatlari hamda uning til lug‘at tarkibida ifodalanishiga doir qarashlar bayon etilgan. Ma‘lumki, butun dunyo mamlakatlarida nikoh bilan bog‘liq turli odatlar mavjudki, ular o‘zaro o‘xshash va farqlanishi bilan ko‘zga tashlanadi. Masalan, *to‘y tortini birgalikda kesish* (das gemeinsame Anschneiden der Hochzeitstorte) ifodasi turli davlatlarda mavjudligini, jumladan, o‘zbek xalq to‘y an‘analariga ham kirib kelayotganini kuzatishimiz mumkin. Bunda kelin va kuyov turli xil rangdagi tasmalar bilan bezatilgan pichoqni birgalikda ushlab tortni kesadilar, o‘zaro bir-birlariga yediradilar va so‘ngra boshqalarga kesilgan tortlarni tarqatadilar.

O‘zbek to‘y marosimlariga ham kelin va kuyov o‘tirgan stolni tort bilan bezatish odati g‘arb davlatlaridan kirib kelgan, deyish mumkin. Lekin tortni aynan

²²Wlislöck Z. Volksglaube und religiöser Brauch der Zigeuner. Vorwiegend nach eigenen Ermittlungen. – Munster I.W, 1891. – S.48.

²³Caspart W. Die geschichtliche Grundlage des gegenwärtigen Evangelischen Gemeindelebens. – Leipzig, 2009. – S.124.

²⁴Albrecht von Eyb. Ehebüchlein. – Leipzig, 1911.

²⁵www.Ehebildung in Deutschland.de. (murojaat sanasi: 12.06.2022)

kelin va kuyov tomonidan kesib, bir-birlariga yedirishlari yoki kesib boshqa mehmonlarga tortiq qilishlari odatga aylanmagan. Albatta bunday holatda o'zbek kelinlarining to'yga tashrif buyurgan mehmonlar oldida ibo va hayo bilan o'tirishlari odat tusini olgan. Ayrim hududlarda mazkur marosim umuman o'tkazilmasligi ham kuzatiladi.

Nikoh marosimi kuni kelinning *oq rangdagi kelinlik libosi* (das weiße Brautkleid)ni kiyishi ham ma'lum ma'noda ramziy xususiyatga ega.

Tadqiqotlardan ma'lumki, oq libos kiyish an'anasini dastlab xristian diniga mansub g'arb mamlakatlarida uyg'onish davri zodagonlari boshlab bergan, lekin bu odat XIX asr oxirlarigacha keng tarqalmagan²⁶. Aytish mumkinki, bu libos barcha xalqlarga g'arb mamlakatlaridan kirib kelgan. Rus madaniyati ta'siri natijasida o'zbek xalqida ham oq rangdagi kelinlik libosini to'y kuni kiyish urfga aylangan.

Bundan tashqari, oq rang bokiralikni ham anglatib kelgan. Nikoh to'yi kuni bilan bog'liq **oq kelin fatasi** (weiße Brautschleier) leksemasi ham ma'lum ma'noda ahamiyat kasb etgan.

Nemis xalqida nikohdan oldingi marosimlardan biri Verlobung (unashtiruv) marosimidir. "Nemis tilining izohli lug'ati"da "**die Verlobung**" (**unashtirish**) yoki "**verlobt**" (**unashtirilgan**) leksemasi shunday izohlanadi:

Verlobung die; -, -en; **e-e V. (mit j-m)** das offizielle Versprechen, dass man j-n heiraten wird <e-e V. bekannt geben, (auf)lösen; V. feiern> || K-: **Verlobungs-, -anzeige, -feier, -ring. (Unashtiruv – kim bilandir** turmush qurishi to'g'risida rasmiy va'da berish, unashtiruvni e'lon qilish, unashtiruvni bekor qilish, bayram qilish. Unashtiruv e'loni, unashtiruv bayrami, unashtiruv uzugi)²⁷.

verlobt 1. Partizip Perfekt; **verloben 2.** Adj; nicht adv; (**mit j-m**) v. so, dass man j-m versprochen hat, ihn zu heiraten: Nachdem sie ein Jahr miteinander verlobt waren, heirateten sie || hierzu **Verlobte** der/die; -n, -n. (Kim bilandir turmush qurish uchun va'da berish. Unashtirilgandan bir yil o'tib turmush qurish. || Unashtirilgan).

O'zbek tilining izohli lug'atida esa, *unashtirish* leksemasiga shunday izoh berilgan:

1. Nikoh to'yidan oldingi yigit va qiz tomonning roziligini rasmiylashtirish, xalqqa ma'lum qilish uchun o'tkaziladigan marosim.

Onasini qo'lga olib, qizning o'zini aldab-suldab, yuqori qishloqdagi bir badavlat odamning o'gliga unashtirdi (P.Tursun. O'qituvchi)²⁸.

Ko'rinadiki, nemis tilining izohli lug'atida *unashtirish* leksemasiga atroflicha izoh berilib, unda unashtiruvni bekor qilish kabi ma'nolar ham yotganini kuzatishimiz mumkin.

Ishning ikkinchi bobi "**O'zbek va nemis tillarida nikoh bilan bog'liq leksik birliklar semantikasi**" deb nomlanib, u uch faslni o'z ichiga oladi.

Bobning birinchi fasli "*Nikohgacha bo'lgan munosabat va marosimlar bilan bog'liq leksemalarning semantik tahlili*" deb nomlanib, unda o'zbek va nemis tillarida nikohgacha munosabatlarni ifodalaydigan leksik birliklar ikki til izohli lug'ati asosida tahlilga tortilgan.

²⁶Helga Maria Wolf. Die schönsten Bräuche, Rituale und Traditionen. – Berlin: Insel Verlag, 2018. – S.36.

²⁷Professor Dr.Dieter Gotz. Langenscheidt – München, 2010. – S.633.

²⁸. Ozbek tilining izohli lugati 6 jildli, 5-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B.577.

Nikohgacha munosabatlarni ifodalaydigan leksik birliklardan biri *ahd-paymond*. Badiiy matnda qo‘llanilgan *ahd-paymonlar* so‘zi ironik xarakterda bo‘lib, aynan “*bitim, kelishuv*” semalariga ega. Lekin ushbu semalar kontekstda “shaydo dil”ga qarshi qo‘yilgan va bu o‘rindagi son kategoriyasi ma‘noni kuchaytirish vazifasini bajarib kelgan. **AHDNOMA** leksik birligi esa rasmiy shartnoma, bitim; pakt. [O‘TIL., I.60] kabi ma‘nolarni ifodalaydi. Ushbu so‘zni rasmiy nikoh jarayoni bilan bog‘liq birlik sifatida qo‘llash mumkin. Kelin-kuyov o‘rtasida nikoh sababdan tuziladigan shartnomani ham shunday atash mumkin. Yuqoridagi so‘zlar bilan o‘zakdosh bo‘lgan tadqiqot doirasidagi yana bir so‘z **AHDLASHMOQ** 1. O‘zaro qat’iy va’da bermoq. 2 rasm kabi ma‘nolarda qo‘llanadi. O‘zaro shartnoma tuzmoq, bitimga kelishmoq [O‘TIL., I.60] Ushbu leksemalar o‘z ma‘nosi va aynan rasmiy nikoh jarayoni bilan bog‘liq hisoblanadi.

Nemis tilining izohli lug‘atida esa *sich versprechen* (va‘dalashmoq, ahdlashmoq), *Versprechen* (va‘da, ahd), *Versprechung* (va‘da, ahd) ma‘nolarini bildirib kelgan bo‘lsa-da bo‘lajak kelin-kuyov, turmush qurmoqchi bo‘lgan yigit va qizlar o‘rtasidagi *ahd-paymon* ma‘nosida qo‘llanmaganligini ko‘rish mumkin.

Nikohdan oldin o‘tkaziladigan marosimlardan yana biri – **QIZLAR BAZMI** f. etn. Nikoh to‘yida qiz faqat o‘z dugonalari ishtirokida o‘tkaziladigan o‘yin-kulgi kechasi [O‘TIL., I.329] bo‘lib, hozirgi kunda ham faqat xotin-qizlar ishtirokida o‘tkaziladi. Masalan, “Kumushbibini ham bu qiziq bazmdan boshqalardek hissa oladir, so‘yinib quvonadir, deb o‘ylanmasin, chunki vujudi **qizlar bazmi** ichida bo‘lsa ham, xayoli allaqayoqlarda uchib yurgandek, ko‘zlari o‘ynag‘uchi qizlarda bo‘lsa ham, ammo haqiqatda boshqa bir narsani ko‘rgandek...” (A.Qodiriy, O‘tkan kunlar. 29-bet).

O‘zbek tilidagi **qizlar bazmi** leksemasining ma‘no-mazmuniga yaqinroq bo‘lgan odat nemis tilida **Polterabend** leksemasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rish mumkin. **Polterabend** izohli lug‘atda quyidagicha beriladi: **Polterabend** *der*; *der Abend vor der Hochzeit, den man mst mit Freunden feiert: Am Polterabend wird nach altem Brauch Geschirr zerschlagen.* (Nikoh kunidan bir kecha avval do‘stlar bilan nishonlanadigan ziyofat kechasi: qadimgi urf-odatga ko‘ra kelin-kuyov ziyofatida idishlar sindiriladi.) “**Polter**” so‘zi aslida “shovqin”, “guvillash”, “shovqin qilish” degan ma‘nolarni anglatadi.

Kelin-kuyov ziyofati, odatda, to‘ydan bir kun avval an’anaviy ravishda birgalikdagi turmushning boshlanishi sifatida ko‘rilganligi sababli, qarindoshlar va do‘stlar, qo‘shnilar hamda hamkasblar bilan bayramona kayfiyatda nishonlanadi. Bu udum kelinning ota-onasinikida o‘tkaziladi. Agar juftlikning o‘z uylari bo‘lsa, mehmonlar ana shu yerga taklif qilinadi. Bog‘dagi chodir, podval (yerto‘la)dagi ziyofat xonasi yoki uy ichidagi hovli oilaviy muhitni yaratishning ajoyib usuli sanaladi. Tashrif buyurgan mehmonlar o‘zlari bilan keraksiz yoki yaroqsiz bo‘lgan chinnilar olib kelishadi va ular yovuz ruhlarni haydab chiqarish maqsadida yerga urib sindiriladi. Singan chinni bo‘laklarini bo‘lajak kelin va kuyov birgalikda supurib tashlashadi. Bu udum kelajakda ham duch kelinishi mumkin bo‘lgan barcha muammolarni birgalashib bartaraf qilinishini anglatadi. Shuningdek, “Einwegkamera” (kamera) va “Gästebuch” (mehmonlar kitobi) kechaga unutilmas o‘zgacha ruh baxsh etadi.

Umuman, o‘zbek va nemis tillarida nikohdan oldingi munosabat va marosimlarni nomlovchi leksik birliklar, deyarli, farqlanmaydi. Nemis tilida

mavjud bo‘lgan nikoh qonuni – **eherecht** so‘ziga teng keluvchi leksik birlik o‘zbek tili izohli lug‘atida mavjud emas. Nikoh bilan bog‘liq tushunchalar “Oila kodeksi”da o‘z qonuniy ifodasini topgan.

Bobning “*Nikoh kuni o‘tkaziladigan marosimlar bilan bog‘liq leksemalar semantikasi*” deb nomlangan ikkinchi faslida ikki tilda mavjud bo‘lgan nikoh kuni o‘tkaziladigan marosim semali leksemalar tahlilga tortilgan. O‘zbek tilida nikoh kuni o‘tkaziladigan marosimlarga oid asosiy leksik birliklar “to‘y”, “kelin”, “kuyov”, “oq libos”, “yor-yor”, “kelin salom” va “uzuk taqish” kabilarni o‘z ichiga oladi. Har bir leksik birlikning semantikasi, uning madaniy kontekstdagi ahamiyati, urf-odatlar bilan bog‘liqligi kuzatiladi. Misol uchun, “oq libos” kelinning poklik va tozalik ramzi sifatida ko‘riladi.

Nemis tilidagi nikoh kuni bilan bog‘liq asosiy leksik birliklar “Hochzeit” (to‘y), “Braut” (kelin), “Bräutigam” (kuyov), “Eheringe” (nikoh uzugi), “Brautstrauß” (kelinning gulchambari) kabilarni o‘z ichiga oladi. Ushbu leksik birliklarning kelib chiqishi, ularning diniy va huquqiy asoslari, madaniy kontekstdagi ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Misol uchun, “Brautstrauß” nikoh kuni kelin tomonidan otib yuboriladigan guldastasi va bu harakatning ramziy ma’nosini beradi.

O‘zbek madaniyatida nikoh kuni o‘tkaziladigan marosimlar keng ko‘lamli va ko‘p qirrali bo‘lib, ular o‘ziga xos leksik birliklar orqali ifodalanadi. Masalan, “kelin olib kelish”, “yor-yor” aytish, “kelin salom”, “to‘y bazmi” kabi marosimlarning leksik jihatdan o‘ziga xos ahamiyati bor.

Nemis madaniyatida nikoh marosimlari, masalan, “Hochzeit”, “Polterabend” (to‘ydan bir kun oldin o‘tkaziladigan marosim), “Brautkleid” (kelin libosi) va “Eheringe tauschen” (nikoh uzuklarini almashtirish) kabi marosimlar ham leksik birliklar orqali ifodalanadi. Ushbu marosimlarning har biri nemis madaniyatining qadriyatlarini va diniy e’tiqodlarini aks ettiradi.

Bobning uchinchi fasli “*Nikohdan keyingi munosabat va tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar tavsifi*” deb nomlangan. Nikohdan keyin turkiy xalqlarda, xususan, o‘zbeklarda yosh kelin-kuyov go‘shangaga kiritiladi. **GO‘SHANGA** f.etn. ayn. Chimildiq [O‘TIL., II.279]

Hofiz qilib bulbulni, chilvir qilib sunbulni,

*Nilufargul bag‘riga **chimildiq** o‘rnataylik* (I.Mirzo, Nima bo‘lsa bo‘ldi)

Jarangdor soching ham bo‘lar po‘pakli,

Tillaqosh topilar ko‘k sandig‘ida.

*Uch gaz bulut kessa bo‘lar **chimildiq**,*

Visol tog‘ida (A.Qutbiddin, Subhlar...)

Har ikkala o‘rinda ham *chimildiq* so‘zi metaforik xarakterga ega bo‘lib, ko‘chma ma’noda qo‘llangan.

Chimildiq, go‘shanga kabi leksik birliklar faqatgina o‘zbek yoki islom diniga mansub xalqlarga tegishli bo‘lib, nemis xalqida esa bunday tushunchani ifodalovchi leksik birlik uchramaydi.

Navbatdagi tushuncha nomi asal oyidir. **ASAL OYI** Yosh kelin-kuyovning to‘ydan keyingi ilk oyi [O‘TIL., I.151].

Nemis tilida esa bunday leksik birlik **Flitterwochen** (asal oyi) deb nomlanadi.

FLITTERWOCHEN (asal oyi) *die; Plural. die ersten Wochen nach der Heirat, in denen viele Ehepaare verreisen.* (nikohdan keyingi dastlabki bir necha

hafta, turmush qurgan ko'pgina juftliklar sayohat qiladilar) Lekin hozirgi kunda ushbu udum o'zbeklar hayot tarziga ham kirib kelmoqda. „O'zbek tilining izohli lug'ati“ ga ko'ra, yosh kelin-kuyovning to'ydan keyingi birinchi oy davriga nisbatan qo'llanadi.

Xo'p to'yni qachon qilamiz? – Avval bir-ikki oy foizimizni yig'ib, sal jamg'arishib olaylik. Hozirgi to'ylarga hazilakam pul ketmaydi. Keyin “Asal oyi”, “Nikoh sayohati” bor (I.Mirzo, Bonu. B.282).

Bundan tashqari nikohlanuvchilar o'zbek tilida ham, nemis tilida ham alohida nomga ega. Masalan, **ER** 2. Xotin kishi bilan nikoh ahdidida bo'lgan erkak kishi; qalliq. Masalan:

Muyassar Qodirovna shahar chetidagi ko'pqavatli imoratning pastki qavatida – bir xonali xonadonda yakka-yu yolg'iz yashaydi. Farzandi yo'q. Er ham qilmagan (U.Azim, Xodimlar bo'limi boshlig'i).

Lug'atda keltirilgan *erkak kishi* so'zining tarixiy kelib chiqishiga e'tibor beraylik. Qadimgi turkiy tilda erkak “kishi” deyilgan. Bu so'zning yana bir ma'nosi – “odam”. Juda ko'p qadimgi tillarda “odam” va “erkak” tushunchalari bitta so'z bilan ifodalanadi. “Ayol” ma'nosini beruvchi so'z “kishi”ga qofiyadosh “tishi” so'zidir. Bu so'zning “tish”ga hech qanday aloqasi yo'q. Demak, erkak – “kishi”, ayol – “tishi”²⁹.

Er so'zi nemis tilida **Ehemann** (er) *der der Mann*, mit dem eine Frau verheiratet ist “*Mann*” Abb. unter **Familie**. (Er (u)3-shaxs birlik shakli:- ayol turmushga chiqqan erkak “Er” rasm. Oila ma'nosida)

XOTIN 2 biron erkak nikohidagi ayol. Ushbu so'zning kontekst ichida qo'llanishiga misol keltiramiz:

Chavandoz xo'rsindi, “uh” tortdi og'ir –

Bir chetga jimgina burdi yuzini.

Balki u – erkak-da! Istamagandir,

Xotinini ko'rishin yoshli ko'zini (U.Azim, Chavandoz)

Tilshunoslikda “tabu” degan tushuncha bor. “Tabu”ning ma'nosi “taqiq” degani. Biror so'z muqaddas yoki, aksincha, qo'rqinchli, uyatli deb hisoblanib, ishlatilmaydi, o'rniga uning ma'nosini anglatuvchi evfemizmlar ishlatiladi. Masalan, o'zbeklarda “xotini”, “ayoli” deyish o'rniga “bolalari” deyish odati bor. Masalan,

“Xullas, shunday gapiradigan bo'lsangiz, qaytib gapirmang. Negaki “ayol” arab tilida “bolalar” degani. Bir zamonlar siz kabi uyatchan odam normal so'zlarni ishlatishga xijolat bo'lib (yoki rashki kuchliligi tufayli) mana shu evfemizmni ishlatgan. Uning kasriga butun millat ayollarni “bolalar” deb atab yuribdi”³⁰.

Tabu o'rniga ishlatiladigan evfemizmlar o'sha ma'noga kelib qolib, o'zi ham tabulashib ketaveradi. “Ayol” shunga misol. Ushbu so'z nemis tilida **EHEFRAU** (xotin) *die die Frau*, mit der ein Mann verheiratet ist-*Frau* -> Abb. unter Familie. deyiladi. **ER-XOTIN–EHEPAAR** (er-xotin) *das zwei Personen* (meist ein Mann und eine Frau), die miteinander verheiratet sind. *Juft* so'zi esa umumiylik ma'nosini ifodalab, butun boshli oila nazarda tutilganda qo'llanadi.

²⁹t.me/AsanovEldar (murojaat sanasi: 22.06.2024).

³⁰t.me/AsanovEldar (murojaat sanasi: 22.06.2024)

Ishning “**Nikoh bilan bog‘liq lug‘aviy birliklarning nutqiy voqelanishi**” deb nomlangan uchinchi bobi uch fasldan iborat. Birinchi fasl “Paremik birliklarda nikoh bilan bog‘liq lug‘aviy birliklar ifodasi” deb ataladi. Qadimdan dunyo xalqlarining urf-odatlarini, an‘ana va rasm-rusmlarida o‘sha xalqning tarixi, madaniyati, dunyoqarashi va kundalik turmush tarzini aks ettiruvchi turg‘un birikmalar o‘z ifodasini topadi. Buni nemis tilidagi nikoh bilan bo‘g‘liq tushunchalar ifodalangan maqollar tahlilida kuzatishimiz mumkin:

Alte Liebe rostet nicht (Sevgi qarimaydi). Bu maqol er-xotinning keksaygan chog‘ida ham bir-biridan mehr kutib yashashini ifodalasa, **Die Augen sind der Liebe Pforten** (Mehr ko‘zda) maqoli er-xotinning hamisha birgalikda bo‘lishi, o‘zaro mehrliligi nigohlarning oila bardavomligidagi o‘rnini ko‘rsatishga xizmat qilgan. **Futsch ist futsch und hin ist hin** (Ko‘zdan yiroq, fikrdan yiroq) maqolida esa aynan yuqoridagi fikrning muhimligi isbotlangan.

Beharrlichkeit überwindet alles (Shoshgan qiz erga yolchimas), **Der Liebe und dem Feuer soll man beizeiten steuern** (Sevgining ko‘zi ko‘r), **Liebe macht blind (Liebe ist blind)** (Muhabbatning ko‘zi ko‘r), **Liebe will gezankt sein** (Davosiz dard – muhabbat), **Wer die Wahl hat, hat die Qual** (Tanlab-tanlab tozishga uchramoq) maqollari yaxshi tanishib ulgurmasdan oila qurgan va keyinchalik omadsiz nikohga uchragan juftliklar uchun qo‘llanadi.

Tahlillardan ma‘lum bo‘ldiki, nemis tilida ham uy-ro‘zg‘orning sarishtaligi, butligi ayol bilan bog‘liqligi haqida ko‘plab ibratli maqollar mavjud. Masalan, **Die Frau ist zu Hause am schönsten** (Ayol uyning ko‘rkidir), **Die Frau tut es dem Manne gleich** (Xotinli ro‘zg‘or guldir, xotinsiz ro‘zg‘or cho‘ldir), **Wie der Vater, so der Sohn** (Onasini ko‘rib qizini ol) kabi maqollar shular jumlasidandir.

